4. Tana a'zolarining harakatlari: Til darslarida jismoniy mashqlar va intuitiv tajribalarni kiritish tilning tana a'zolari harakatini kuchaytirishi mumkin. Rol o'ynash, imo-ishoralarga asoslangan tadbirlar va multimedia resurslari o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilishi mumkin. Masalan, harakat fe'llarini o'rgatish uchun imo-ishoralardan foydalanish o'quvchilarga jismoniy harakatlarni lingvistik analoglari bilan bog'lashga yordam beradi.

5. Kognitiv strategiyalar: Vizualizatsiya, aqliy xaritalash va bog'lab yodlash metodlar kabi kognitiv strategiyalarni o'rgatish lug'atni mustahkamlash va xotirada saqlashda yordam beradi. Ushbu strategiyalar miyaning axborotni qayta ishlash va tartibga solishning tabiiy usullaridan foydalanadi. Masalan, so'zni ma'lum bir kontekstda tasavvur qilish yoki uni tanish tushuncha bilan bog'lash xotirani yaxshilashi mumkin.

6. O'zaro suhbat va aqliy jarayonga asoslangan til o'rganish: Ushbu yondashuv o'quvchilarga tilni tabiiy va intuitiv tushunishga yordam berib, takroriy foydalanish orqali til me'yorlari va tuzilmalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Muntazam suhbatlar va yozish mashqlari bilan shug'ullanish bu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, kognitiv tilshunoslik xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishning murakkabliklarini tushunish uchun boy qarashlarni taqdim qiladi. Tilning kognitiv va hayotiy tajribadan kelib chiqqan jihatlariga e'tibor qaratib, o'qituvchilar yanada samarali va qiziqarli o'qitish amaliyotini rivojlantirishlari mumkin. Til, ong va tajriba o'rtasidagi aloqalarni o'rganishda davom etar ekanmiz, kognitiv tilshunoslikning tushunchalari, shubhasiz, til ta'limi kelajagini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Cognitive Linguistics and Second Language Learning: Theoretical Basics and Experimental Evidence" edited by Andrea Tyler, Mari Takada, Yiyoun Kim, and Diana Marinova (2005)
2. "Usage-Based Approaches to Language Acquisition and Processing: Cognitive and Corpus Investigations of Construction Grammar" edited by Nick C. Ellis and Diane Larsen-Freeman (2006)
3. "Metaphor and Second Language Learning" by Jeannette Littlemore (2023) in book: Applying Cognitive Linguistics to Second Language Learning and Teaching (pp.125-142)

4. "Cognitive Linguistics and Language Teaching" by Frank Boers and Seth Lindstromberg (2008)
5. "Cognitive Linguistic Approach to Pedagogical Grammar" by Sabine De Knop & Teun De Rycker <http://hdl.handle.net/2078.3/121086>
6. "Metaphoric Competence: A Language Learning Strength of Students with a Holistic Cognitive Style?" by Jeannette Littlemore (2001) [http:// www.jstor.org](http://www.jstor.org)

“GO’ZAL VA NAVQIRON XUDOYORXON O’RDASI”

Hasanov Muxtorjon Qaxramonjon o’g’li

QDPI Tarix yo`nalishi I-bosqich talabasi

Karimov Shukurullo Ravshanjon o’g’li

QDPI Tarix yo`nalishi I-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo‘qon xonligining so‘nggi hukmdori Xudoyorxon davrida Markaziy Osiyodagi eng noyob arxitektura yodgorliklaridan biri 1863-1870 – yillarda qurilgan Xudoyorxon o‘rdasi qurilish ishlari, o‘ziga xos me‘morchilik sanoati haqida ma‘lumot beriladi.

Абстрактный. В данной статье представлены сведения о строительных работах Орды Худойрхана, одного из самых уникальных архитектурных памятников Средней Азии, построенного в 1863-1870 годах в период правления Худойрхана, последнего правителя Коканского ханства, и уникальной архитектурной отрасли.

Abstract. In this state, the information about the construction works of the Order of Khudoyorkhana, one of the most unique architectural monuments of Central Asia, built in 1863-1870 and during the reign of Khudoyorkhana, the last ruler of the Kokhan Khanate, and a unique architectural branch.

Kalit so‘zlar: O‘rda , zarrin saroy, darvozaxona, peshtoq, Xo‘qand, salomxona

Ключевые слова: Орда, золотой дворец, сторожка, пешток, Коканд, Саломхана.

Key words: Horde, golden palace, gatehouse, roof, Khoqand, salomkhana

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”.

Sh.M.Mirziyoyev

Barchamizga ma‘lumki mustaqilligimiz tariximizni xolisona, tarafkashlikka yo‘l qo‘ymasdan yoritish vazifasini yukladi. O‘zbek xalqi ko‘hna va buyuk o‘tmishga ega ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatimiz hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borib, ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ko‘zlangan asosiy maqsad – buyuk xalqqa munosib buyuk kelajakni yaratishdir. Bunyodkor xalqimiz ko‘p ming asrlik tarixi davomida ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan bo‘lib, uning namunalari bugungi kunda ham o‘zining mahobati va nafisligi bilan kishilarni lol qoldirmoqda. Jannatmakon O‘zbekistonning marvaridi bo‘lgan Farg‘ona zamini tarixiy madaniy yodgorliklarining qadimiyligi bilan xalqimiz tarixida munosib o‘rin tutadi. Bu yerda mavjud bo‘lgan moddiy madaniyat namunalarini o‘rganish va ularni ilmiy iste‘molga kiritish va yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanib kelinmoqda.

Farg‘ona vodiysining eng qadimiy shaharlaridan biri Qo‘qon shahrining tarixiy-madaniy obidalari, muqaddas ziyoratgohlari asrlar davomida o‘z qadrini, ko‘rinishini yo‘qotmay saqlanib kelinmoqda. Qo‘qon shahri tarixan ilm-ma‘rifat, madaniyat, ma‘naviyat markazi hisoblanadi. 1709-yilda Qo‘qon xonligining tashkil topishi bilan bu hududda bir qancha noyob me‘moriy obidalar qurila boshlandi. Ularning orasida madrasalar, saroylar, masjidlar va boshqa binolar alohida o‘rin tutadi. Ularning ayrimlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolingan.⁴

⁴ T. Nuridinov, X. Sodiqov- “Mening jonajon shahrim”. Farg‘ona-2022/ 15-B

Xo'qandi latif Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy markazlaridan biri sifatida mashhur bo'lib kelgan. Garchi hozir rasman "Qo'qon" deb atalsa-da, manbalarda "Xo'qand" hamda "Xo'qandi latif" shaklida qalamga olib kelingan. Shahar nomining kelib chiqishi borasida turli talqinlar aytilgan. Bu talqinlar ichida eng mo'tabari, ahli ilm tomonidan tan olingani quyidagichadir: qadimgi turkiy tilda "Xo'" – shamol, "kand, kent, qand" – shahar ma'nosini beradi. Shahar iqlimi tahlili natijalaridan ma'lum bo'lishicha, shaharda bir yilda o'rta hisobda 240 kun turli tezlikda shamol esib turadi. Shaharning iqlimi mo'tadil, suvi totli va pokiza, havosi yugurik, aholisi imon-e'tiqodli, odobli, xushmuomala, xushtavoze, nozikta'b, hozirjavob, mehmondo'st, savobtalab, she'riyatga, mutoyibaga moyil, ko'cha va maydonlari, hovli-haramlari orasta bo'lganligi va boshqa fazilatlar tufayli unga "latif" sifati berilgan⁵.

Shaharning farzandi sifatida shuni ta'kidlab o'tishdan mamnunmizki, jahonda "Sharif" sifatini olgan shahar oltita bo'lsa, "Latif" sifatini olgan shahar yagona Xo'qanddir. 2009-2011-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining Qo'qon arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan qazuv ishlari asnosida shahar zamini qatlam-qatlam o'rganildi. Mutaxassislar topildiqlarni tahlil qilib, "shahar taxminan milodiy eradan oldingi I asrda vujudga kelgan" degan xulosaga keldilar.

XIX asrning muhtasham va muazzam obidalaridan biri bo'lmish Xudoyorxon saroyi Turkiston zaminida saqlanib qolgan uchta saroy majmualaridan biridir. Ularning birinchisi Xivadagi Toshhovli saroyi, ikkinchisi Buxoro Arki, uchinchi esa Xudoyorxon saroyidir.

Qo'qon xonligi mavjud bo'lgan davrda (1709-1876 yillar) xonlar tarafidan yetti marta saroy qurdirilganligi ma'lum. Zamona zayli bilan ularning oltitasi yo'q bo'lib ketgan. Xudoyorxon saroyi esa ularning ettinchisi bo'lib, hozirda uning kichik bir qismi saqlanib qolgan. Xudoyorxon saroyi "O'rda" deb ham atalgan. "O'rda" atamasining ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, dastlab bu so'z "davlat", "saltanat" ma'nolariga ega bo'lgan. Keyinchalik "davlat boshlig'i qarorgohi" tariqasida o'zgarib borgan. Demak, "O'rda" - "xon qarorgohi" demakdir.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Xudoyorxon saroyi o'rnida Sayyid Muhammad Umarxon tomonidan qurdirilgan "Zarrinsaroy" nomli saroy bo'lgan. 1842-yilda Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo'qonga bostirib kelshni oqibatida bu saroy vayron etilgan⁶.

Sayyid Muhammad Xudoyorxon o'z hokimiyatining dastlabki yillarida "Jahonaro" saroyida istiqomat qilgan. Mazkur saroy davr talabiga javob bermay qolganligi va bu yerda otasi hamda akasining o'ldirilganligi sababli Xudoyorxon unda yashashni istamay, Zarrinsaroy o'rnida yangi saroy binosini qurdirishga farmon beradi. Qurilish ishlari 1863-yilda boshlanadi. Unga sarkor etib mashhur me'mor Mir Ubaydullo Muhandis Ho'qandiy tayinlanadi. Shuningdek, me'morchilikda dong'i taratgan ustalardan Usta Abdulla Roshidoni, Muhammad Turdiali, Usta Fozilxo'ja, Isavoy Maxsum, Mullo Ahmad Domullo, Muhammad Olim sirchi va boshqalar bino qurilishiga jalb etilganlar. Dastlab ganchdan saroyning kichik nusxasi (maketi) tayyorlanadi. U xon tomonidan tasdiqlanganidan keyin qurilish ishlari boshlanadi. Xudoyorxon vaqtincha taxtdan ketgandan so'ng qurilish ishini Sulton Sayyidxon bir muddat davom ettiradi. 1865-yilda Xudoyorxon taxtni qayta

⁵ Xo'qandiy, Muhammad Yahyoxon – Xo'qandi latif manoqibi. (tazkira) - T:"Movarounnahr".2018. 12-bet.

⁶ T. Nuridinov, X. Sodiqov- "Mening jonajon shahrim". Farg'ona-2022/16-B

egallagach, qurilish ishlari keng ko‘lamda davom ettirilib, 1871-yilda yakunlanadi. Bezak ishlari esa 1873 yilda to‘liq tugallangan⁷. Biz g‘urur bilan shu jumlani kiritishimiz mumkinki hozirgi paytda ham ichki va tashki turistlar tashrif buyurishganida ushbu saroyi jozibadorligidan va hashamatlilikidan ham lol qolishadi. Albatta saroy o‘z ustalari tomonidan juda muhtasham qilib qurilgan.

Xudoyorxon saroyining hozirgi kunda saqlanib qolgan qismlarini quyidagi tasniflarga bo‘lish mumkin:

Peshtoq- saroyning saqlanib qolgan qismlaridan biridir. Xudoyorxon saroyining peshtoqlari rang-barang, guli-guliga monand koshinlar bilan bezatilgan.

Koshinlar – turli xil ranglarga bo‘yalgan, sirlangan, ya‘ni usti yaltiroq parda bilan qoplangan sopol lappaklardir. Koshinlar maxsus xumdonlarga pishirib keltirilganidan so‘ng koshinkor ustalar gulini-guliga, shaklini shakliga moslab devorga maxsus loy vositasida o‘rnatganlar peshtoqining chap tomonidagi burj mezanasi ostiga “Alloh” degan so‘z yozilgan. Koshinlar orasidan turtib chiqqan yog‘ochlar esa imorat sarroflarining ichki qismi bo‘lib, devordagi namni surib chiqarish, fonus osish hamda ko‘z tegishini oldini olish kabi vazifalarni bajargan. Xudoyorxon saroyi darvozasi chinor daraxtidan tayyorlangan. Ushbu darvozada fors tilida o‘yib bitilgan hikmatlar naqshlar bilan shu darajada uyg‘unlashib ketganki, uni darxol ilg‘ab olish qiyin. Darvozaxonadan to‘g‘ri yurilsa asosiy xovliga chiqiladi. Bunda o‘ng tomonda devon, chap tomonda esa xonning qabulxonasi joylashgan. Xudoyorxonga bu saroyda besh yilgina yashash nasib etgan. 1876-yilda Qo‘qon xonligi ruslar tomonidan tugatilgandan so‘ng saroy pastki qismlari buzib tashlanib, o‘rniga qal‘a qurilgan. Saroyning qolgan qismi shahar garnizoni ixtiyoriga berilgan. Binoning yuqori qismi xam asta sekin buzilib, dastlab qurilganda 114 xonadan iborat bo‘lgan, keyinchalik saroyning orqa tomonidagi qismi buzilib ketgan. Hozirgi kunda uning 19 ta xonasi saqlanib qolgan. Keyinchalik Xudoyorxon saroyi rus hokimiyati davrida tamirlanib, ayrim xonalarning qiyofasi o‘zgargan. Biroq asli holati saqlanib, qolgan xona ham mavjud hisoblanib, ilgari saroy masjidi bo‘lgan. Ba‘zi manbalarda esa bu xona xonning bosh vaziri Otabek noibning xonasi bo‘lganligi aytib o‘tilgan.

Shuni aytib o‘tishimiz joizki ushbu yuqorida keltirib o‘tilgan xona go‘zal, uni bezatishda xalq amaliy san‘atining barcha turlari qo‘llanilgan. Xona shifti murakkab va go‘zal uslubda ishlangan bo‘lib, ulardagi xovuzaklar go‘zallik baxsh etish bilan birga xonaning salqinligini ham ta‘minlagan. O‘rda binosi o‘z davrining yirik saroy inshootlaridan bo‘lib, maydoni sakkiz gektarni tashkil etgan.

Inshoot to‘rt tarkibiy qismdan iborat bo‘lgan: 1. Tashqi saroy. (qal‘a) 2. O‘rta saroy. 3. Ichki saroy. 4. Bog‘.

Tashqi, o‘rta va ichki saroylarning sharq tomonga qaragan va bir o‘q yo‘nalishida joylashgan o‘z darvozasi bo‘lgan. Birinchi darvoza hozirgi istirohat bog‘ining ramziy darvozasi o‘rnida joylashgan. Inshoot tog‘ri to‘rtburchak shaklida qurilmagan. Joyning relyefi, atrofdagi imoratlarning joylashuvi, Umarxon davridan qolgan bog‘ning tuzlishi va boshqa omillar geometrik aniqlikka erishishga imkon bermagan.

O‘rda binosi ma‘muriy jihatdan ham bir necha yirik qismlarga bo‘linadi: 1.Qal‘a. 2. Davlatxona. 3. Haram. 4. Shahnishin. 5. Xo‘jalik bo‘limi. 6. Ma‘naviy bo‘lim. Ushbu ma‘muriy qismlar inshootning turli me‘moriy qismlariga joylashgan. Mazkur bo‘limlar o‘z navbatida ko‘plab bo‘limlardan iboratdir. Ichki saroy yerdan to‘rt gaz balandlikdagi, atrofi g‘ishtli poydevor

⁷ T. Nuridinov, X. Sodiqov- “Mening jonajon shahrim”. Farg‘ona-2022/16-B

bilan mustaxkamlangan sun'iy tepalik ustiga qurilgan. Ostqurmaning uzunligi 143 metr, eni 68 metr. Maydoni 1 gektar atrofida. Inshootning Haramgacha bo'lgan qismi bir qavatli, Haram esa ikki qavatli qilib qurilgan. Ichki saroy yetti hovli va bir yuz o'n to'rt xonadan iborat. 114 raqami musulmonlar uchun muqaddasdir, illo, Qur'oni karim 114 suradan iborat, shu tufayli, me'morlarimiz bu muqaddas raqamni o'z imoratlarida ifodalashga harakat qilishgan. Jumladan, Xudoyorxon tomonidan qurdirilgan Madrasayi Oliyda 114 hujra mavjud bo'lgan, Umarxon Jome' masjidi shiftini 114 toqiga bo'lishgan.⁸

Birinchi kichik hovli. Darvozaxonadan to'g'ri yurilsa, asosiy hovliga chiqiladi. O'ng tomonda devon, chap tomonda esa xonning Qabulxonasi joylashgan. Undan narida uzun ayvon⁹ hovlini o'rab turadi.

XIX asrning 20-yillarida bu yerda qashshoqlar qo'mitasi, qo'shchilar soyuzi kabi idoralar o'rnatilgan. 1924-yilda Farg'ona viloyat qishloq xo'jaligi va sanoat ko'rgazmasi ochilib, keyinroq shu ko'rgazma asosida muzey tashkil etilgan.

Devon - davlatning boshqaruv idorasi bo'lib, saroyning shu qismi devon ixtiyoriga berilgan. Devonxonada vazirlar, mirzolar va boshqa mansabdorlar idora ishlarini yuritganlar. Devon binosiga kiriladigan joy bir vaqtlar ayvon bo'lgan. Xonalar ko'plab buzilib ketgach, keyinchalik xonalarga ehtiyoj ortib, devon binosidagi bir qancha ayvonlar xonaga aylantirilgan.

Rus hukumati davrida xonaga zamonaviy taxta pol qoplangan va kamin uslubidagi isitish vositasi qurilgan. Ushbu kaminni qo'qonlik Mamasodiq usta qurganlar. Xonalar mankaldonlar vositasida isitilgan.

Saroyni batamom buzish boshlanmasdan oldin rus harbiylari saroy tarixini chizib qoldirgan ekan. Shu asosda me'morlar tomonidan saroy ichki qismining kichik nusxasi (maketi) tayyorlandi. Ushbu maketda saroyning barcha xonalari va hovllari: peshtoq, darvozaxona, devon, xazina, zarbxona, mehmonxona, salomxona, hujrayi xos, xonzodalar xonasi, shaxnishin va haram o'z aksini topgan.

Asosiy hovli. Bu hudud ichki saroyning asosiy hovlisi bo'lib, unda turli marosimlar: tantanalar, sunnat to'ylari, yig'ilipshar o'tkazilgan. Xon davrida hovli sathiga g'isht yotqizilgan edi. Sho'ro davrida asosiy hovlini devon hovlisidan ajratib turgan devorlar va mehmonxona inshooti buzib tashlangan edi. XX asrning 70-80 yillarida ular qayta tiklandi. G'arb tomondagi ayvonlar esa ta'mirdan chiqarildi. Sharqiy ayvon ichidagi bino peshtoqiga arab tilida quyidagi bitik bitilgan:

“Ifta yo mufattix al-abvob.

Faqir Muhammad Turdali. Sana 1286”.

Mazmuni: “Ey dorbon, eshiklarni och menga, faqir Muhammad Turdali. 1286”.

Bu jumla jannat darvozaboni Rizvonga qarata aytilgan xitobdir. Muhammad Turdali esa saroy qurilishida sarkor va ustalardan biri edi. Bu jumalarni aynan u bitib qoldirgan.

Salomxona. Bu xona xonning qabulxonasi bo'lib, rasmiy nomi “Salomxona” bo'lgan. U Sharq me'morchilik uslubida juda go'zal qilib naqshlangan. Xona shiftiga oltin suvi yurgizilgan rang bilan bezak berilgan. Xon bu yerda elchilarni, mehmonlarni, a'yonlarni va fuqarolarni qabul qilgan. Xonning o'zi mehrobdagi taxtda o'tirgan. Taxt o'sha davrda yo'qolib ketgan. Podsho Rossiyasi davrida bu xonada pravoslav cherkovi ochilgan. Shu sababli xona ko'rinishiga ayrim

⁸ Xo'qandiy, Muhammad Yahyoxon – Xudoyorxon O'rdasi – T:“Namangan”. 2016. 23-53-betlar

⁹Ayvon – bir, ikki yoki uch tomoni ochiq asosan, yog'och ustunli bostirma.

o'zgarishlar kiritilgan: eshik, derazalar o'rni, pol, mehrob ko'rinishi o'zgartirilgan. Qolgan qismi asl holatida saqlangan.

Hujrai xos. Hujrai xos so'zi forscha bo'lib, "xonning o'z xonasi" degan ma'noni anglatadi, ya'ni xon davlat ishlaridan xoli bo'lgandan so'ng shu xonada dam olgan. Kichikroq ziyofatlar, maxfiy majlislar ham shu xonada o'tkazilgan. Bu xona to'liq ta'mirlangan. Ayrim joylarida eski naqsh namunalari qoldirilgan. Hozirda xonada turli mamlakatlardan keltirilgan osori-atiqalar namoyish etilmoqda.

Xudoyorxon saroyini ko'plab chet ellik sayyoh va olimlar o'z xotiralarida yozib qoldirganlar. Masalan, 1871-yilda Qo'qon shahriga kelgan rus sayyohi saroy haqida shunday yozadi: "Ulkan soydan o'tib biz qal'a oldidagi katta maydonga kirib qoldik. Bu yerdan bundan ham yaxshiroq go'zal saroy ko'rki ochiladi. Saroy binosi balandlikda qurilganligi tufayli qal'a devori orqasidan ham ko'rinaveradi. Aslida, faqat o'rtasidagi ark bilan old tomoni (fasadi) ko'rinadi.

Qo'qon shahar me'morchilik bo'limida quyidagi ma'lumotlar saqlanadi: "XIX asr o'lka me'moriy yodgorliklari, O'rta Osiyoda saroy me'morchilik inshootlari qatorida Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rdasi oxirgi o'rinda turadi. Saroy qurilishi 1863-yildan 1871-yilgacha davom etgan bo'lib, old tomonining koshinlar bilan bezatilishi esa 1873-yilda tugagan. Saroy qurilishida Farg'ona vodiysidan bir necha ming odam qatnashgan. Barcha qurilish ishlari qo'lda bajarilgan. Qurilishni Qo'qon xonligining turli shaharlaridan keltirilgan 80 nafar usta boshqargan. Rejalovchi va saroyning bosh me'mori Usta Mir Ubaydullo edi.

Saroy mahalliy ustalar Mulla Suyarqul va Usta Solixo'ja va buxorolik Usta Fozilxo'jalar tomonidan me'morboshi Usta Mir Ubaydullo usta boshchiligidagi qurilgan. Asosiy qurilish materiali pishgan g'isht bo'lgan.

I.I. Ibragimovning yozishicha, "1871-yilda xonning qabulxonasi osiyocha rang-baranglik bilan yevropacha komfort aralashmasi bo'lib, yevropacha jihozlari ko'proq edi, osiyocha jihozdan juda oz qolgandi: bo'yalgan shift va devordagi tokcha hamda yozilgan gilam, ko'rpacha va yostiqlar. Devorda katta oyna osig'liq turardi. Uning oldida dumaloq stol, uning ustida shamdon va yoqilgan sham turardi. Eshikning o'ng va chap tomonlarida yana ikkita kichik oynalar osilgandi, devorlar oldida buk daraxtidan tayyorlangan stullar qo'yilgan, xontaxtalarda esa chiroq yokilgan edi"¹⁰.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz joizki, mustaqillik yillarida tarixiy shaharlar va obidalarga juda katta e'tibor berilgan bir davrda Qo'qon xoni Xudoyorxon tomonidan qurilgan, "Xudoyorxon o'rdasi"da ham katta ta'mirlash ishlari olib borildi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan "Xudoyorxon o'rdasi"da 2007-yilda yirik ta'mirlash ishlari olib borildi. Natijada birinchi hovlining chap tomonidagi ayvoni qayta yirik ta'mirdan chiqardi. Saroy va saroy joylashgan bog' maydoni ta'mirdan chiqarilib obodonlashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Nuridinov, X. Sodiqov- "Mening jonajon shahrim". Farg'ona-2022/ 15-B
2. Xo'qandiy, Muhammad Yahyoxon – Xo'qandi latif manoqibi. (tazkira) - T:"Movarounnahr". 2018. 12-bet.
3. T. Nuridinov, X. Sodiqov- "Mening jonajon shahrim". Farg'ona-2022/16-B
4. T. Nuridinov, X. Sodiqov- "Mening jonajon shahrim". Farg'ona-2022/16-B

¹⁰ Bobobekov H. Qo'qon tarixi – Toshkent: Fan, 1996 - B. 217.

5. Xo'qandiy, Muhammad Yahyoxon – Xudoyorxon O'rdasi – T:“Namangan”. 2016. 23-53-betlar
6. Bobobekov H. Qo'qon tarixi – Toshkent: Fan, 1996 - B. 217.
7. , T. Nuriddinov, A. Nizomov, O. Rasulov - “Qo'qon shahrining tarixiy- madaniy yodgorliklari”. Toshkent- “FAN”
8. B.J.Eshov, A.A. Odilov. “O'zbekiston tarixi”. Toshkent 2014.
9. Sh.Sh. Ashuraliyeva, F.Sh.Qurbonova , G.T. Boymirova- “XUDOYORXON O'RDASI”. T- 2022.

MAMLAKATDA BIZNES SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA IQTISODIYOTIMIZDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH

Eshimova Gulandom

Iqtisodiyot fakulteti 201-guruh talabasi

Annonatsiya: Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti rivojining garovidir. Kichik va o'rta biznesning innovatsion rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, byudjetga tushadigan soliqlar miqdorini oshirish, balki davlat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash imkonini beradi. Aholi o'rtasida ishsizlik darajasi pasayadi, mehnat o'rinlari soni ortadi, daromad oshadi, turmush darajasi yaxshilanadi. Ushbu maqolada biznes samaradorligini oshirish to'g'risida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisod, biznes, sarmoya, hamkorlik, tadbirkorlik

Аннотация: Развитие малого и среднего бизнеса является залогом развития экономики страны. Инновационное развитие малого и среднего бизнеса позволяет не только увеличить объемы производства, увеличить объем налогов, поступающих в бюджет, но и улучшить социально-экономическую ситуацию в стране. Уровень безработицы среди населения снизится, количество рабочих мест увеличится, доходы возрастут, улучшится уровень жизни. В этой статье представлены рекомендации по повышению эффективности бизнеса.

Ключевые слова: экономика, бизнес, инвестиции, кооперация, предпринимательство.

Abstract: The development of small and medium-sized businesses is the guarantee of the development of the country's economy. Innovative development of small and medium business allows not only to increase the volume of production, to increase the amount of taxes coming to the budget, but also to improve the socio-economic situation in the country. The unemployment rate among the population will decrease, the number of jobs will increase, income will increase, and the standard of living will improve. This article provides recommendations on how to improve business performance.

Key words: economics, business, investment, cooperation, entrepreneurship

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik sohasi jadal rivojlanib borayotgan bo'lsada, mazkur sohani yanada rivojlantirish yo'llarini aniqlash va ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Respublikamizda iqtisodiyotni bozor qonunlari talablari asosida shakllantirib, ishlab chiqarishni erkin raqobat muhitida olib borish muhim masala hisoblanadi. Tobora kuchayib borayotgan raqobatbardosh va talabchan ishbilarmonlik muhiti barcha tashkilotlarni, hatto notijorat tashkilotlarni ham o'z bizneslarini doimiy ravishda yaxshilashga undaydi.

Tadbirkorlik - bu shaxsiy tashabbus, tadbirkorlik qobiliyatlari va xatarni qabul qilish asosida ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, savdo-sotiq faoliyatini tadbirlar asosida amalga oshirish orqali daromad olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat. Tadbirkorlik iqtisodiyot sub'ektlarining mavjud iqtisodiy, tabiiy, mehnat va intellektual salohiyatlarini oqilona sarflab, samaraliroq natijalarga erishishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, u bozor munosabatlari rivojlanishida iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Tadbirkorlik nazariyasini yaratishga Y.Shumpeter katta hissa qo'shgan olimdir. Shumpeterning (1982) "Innovator kontseptsiyasi" tadbirkorlik nazariyasi evolyutsiyasiga asos soldi. Y. Shumpeter "innovatsiya" tushunchasiga chuqur va mazmunli ta'rif berib, uning tarkibiga texnik yangiliklardan tashqari, yangi bozorlar, yangi ta'minot manbalari va yangi manba aloqalarini tashkil etish, boshqarish va marketing faoliyati jarayonida, moliya sohasidagi

yangiliklarni ham o'z ichiga oladi.. Tyunen (1936) tadbirkorni yuqori va alohida fazilatlariga ega, muhim qarorlar qabul qilish, tavakkal qilish, kutilmagan daromad olish va uning harakatlariga javob berish qobiliyatiga ega shaxs deb ta'riflagan. Knight (2003) A.Tyunenning yondashuvini yanada rivojlantirdi va xavf va noaniqlik kabi tushunchalarga e'tibor qaratdi.

Zamon o'zgarishi munosabati bilan kichik va o'rta biznes tushunchalari, strategiyalari, boshqaruv tamoyillari o'zgarmoqda. Ba'zi olimlar kichik biznesga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqsalar, boshqalari biznes rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan muammolarni ko'rib chiqadilar.

Romanenko E.V. (2008 y.) kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarning samaradorligini baholash uchun kichik biznes sub'yektlarining umumiy hududiy mahsulotdagi ulushini, viloyatdagi boshqa tadbirkorlik sub'yektlarida kichik biznesning ulushini, kichik biznes sub'yektlarining ulushini baholash zarur, deb hisoblaydilar. viloyatdagi kichik korxonalarda mehnat qilayotgan ishchilar ulushi. barcha korxonalarda ishlaydigan xodimlar soni va kichik biznes sub'ektlarining umumiy soliq tushumlaridagi ulushini baholash kerak degan yondashuvni taklif qilgan. Hududlarda kichik biznesni rivojlantirish samaradorligini soliqlar ulushiga qarab baholash mumkin.

Ya'ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir davlat dasturlari samaradorligini kuzatishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ning bugungi rivojlanishini tahlil qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Baholash natijalariga ko'ra amaldagi davlat dasturlari va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari samaradorligini aniqlash mumkin.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta'minlash orqali jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishilmoqda.

Shunday ekan, endilikda kichik biznesni nafaqat son jihatdan ko'paytirish, balki uni avvalo sifat jihatdan ham rivojlantirishimiz, bu borada oddiy ishlab chiqarishdan ichki va tashqi bozorga yo'naltirilgan murakkab, yuksak texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tish masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz darkor.

Yurtimizda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni mustahkamlashga bo'lgan e'tibor yildan-yilga oshib bormoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilgan islohotlar natijalariga ko'ra 2024-yilning yanvar-mart oylari kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan 100 279,7 mlrd so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 42,7 % i yaratilgan.

Shundan 25,3 % i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 13,0 % i sanoat, 10,3 % i qurilish tarmoqlari va 51,4 % i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 96,1 %, qurilishda 79,3 %, xizmatlar sohasida 40,6 % va sanoatda 19,1 % ni tashkil etdi.

Kelgusida biznes samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyida bir qancha tavsiyalar ishlab chiqildi

Investitsiya muhitini yaxshilash:

-Investorlar uchun qulay va barqaror siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish.
 -Soliq tizimini soddalashtirish, soliqlar miqdorini kamaytirish va ularning barqarorligini ta'minlash.

-Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulayliklar yaratish.

-Raqobatbardosh infratuzilmani rivojlantirish.

Korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash:

-Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish (vergi, kredit, subsidiyalar).

-Kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish.

-Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

-Yagona elektron platformalar orqali ishlash imkoniyatlarini kengaytirish.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash:

-Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish.

-Qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish.

-Korxonalar uchun muammolarni bartaraf etish orqali xizmatlar sifatini oshirish.

-Raqobatni rag'batlantirish va monopoliyalarning ta'sirini kamaytirish.

Ishbilarmonlik madaniyatini shakllantirish:

-Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash.

-Innovatsion g'oyalar va yangi texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish.

-Davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash.

-Xalqaro tajribalar va eng yaxshi amaliyotlarni maqsadli o'rganish va joriy etish.

Korxonaning biznes-jarayonlarini optimallashtirish butun faoliyat yoki alohida jarayonlarni qayta tashkil etish orqali korxona foydasini oshirishga, xavflarni bartaraf etishga va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Eng oddiy misol - zamonaviy uskunalarga o'tish. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash orqali mijozlar sonini ko'paytirishga va raqobatchilardan ustun turishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 26 martdagi PF-5975- son Farmoni

2. Vaxabov A.V. Milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish muammolari. /“Экономика и туризм: международная и национальная практика”. Республиканская научно-практической конференция. Технический институт Ёджу в городе Ташкент. 22 февраля 2020 года

3. “Jahonda barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari” mavzusidagi respublika ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari to'plami. -: Toshkent. “Universitet”. 2018

4. Bozhko, L. (2022). The Innovative Basis of the Growing Small and Medium-sized Businesses. In IX International Scientific and Practical Conference “Current Problems of Social and Labour Relations (ISPC-CPSLR 2021), 69-74. Atlantis Press. <https://doi.org/10.2991/assehr.k.220208.012>

5. Kangalakova, D.M., & Sabden, O. (2017). Methods of assessment of efficiency of small and medium-sized enterprises in developing countries: Experience of Kazakhstan. *International Journal of Economic Research*, 14(7), 47–57.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1	<i>Rajabova Munisa Aminboy qizi</i>	BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVODXONLIKKA O'RGATISHNING STRATEGIYALARI	3-6
2	<i>Rajabova Munisa Aminboy qizi</i>	SAVODXONLIKKA ILK QADAMLAR	7-10
3	<i>Sobirjonovna Sevinch Rakhmonkulova</i>	AN OVERVIEW OF THE AMERICAN SHORT STORY	11-13
4	<i>Нормахамедов Бобурбек Хусанбой угли</i>	КРИМИНАЛИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С НЕЗАКОННЫХ ПОДКЛЮЧЕНИЙ К ЭЛЕКТРИЧЕСКИМ СЕТЯМ В КОММЕРЧЕСКИХ ЦЕЛЯХ	14-16
5	<i>Khalimova Dilrabo Jalilovna</i>	THE EFFECTS OF TOBACCO SMOKING ON THE BODY OF ADOLESCENTS IN THE PREVENTION OF HARMFUL SPORTS-ORIENTED HABITS	17-21
6	<i>Haydarova Malika Shaxriddin qizi</i>	O'RTA OSIYO XONLIKLARI DAVRIDA BOJXONA VA SAVDO MASALASI	22-24
7	<i>Radjapova Gavhar Kurbonovna</i>	KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA UNING XORIJIY TILNI O'QITISHDAGI O'RNI	25-28
8	<i>Hasanov Muxtorjon Qaxramonjon o'g'li</i> <i>Karimov Shukurullo Ravshanjon o'g'li</i>	GO'ZAL VA NAVQIRON XUDOYORXON O'RDASI	29-34
9	<i>Eshimova Gulandom</i>	MAMLAKATDA BIZNES SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA IQTISODIYOTIMIZDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH	35-38